



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA SO‘FIY AYOLLAR TAVSIFI THE PORTRAYAL OF SUFI WOMEN IN CLASSICAL UZBEK LITERATURE

Raximqulova Nargiza Qurvonaliyevna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyot universiteti
1-kurs magistranti

e.mail: nargizarahimqulova8@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./CPGG8810](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./CPGG8810)

Annotatsiya. Mazkur maqolada so‘fiy ayollarning hayot tarzi, xayrli amallari yoritiladi. Ilm-ma‘rifatli, sabr-bardosh, ibodat va taqvo mustahkam sanalgan orifa ayollar ta‘rifi Qur‘oni Karim va Payg‘ambarlar tarixida keltirilganligi haqida bayon qilinadi. Mumtoz adabiyotimizning nodir asarlarida so‘fiy ayollar sifatida so‘z yuritilgan ekan, jumladan, Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asarlari orqali ulug‘ maqomga yetgan orifa ayollar zikri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Orifa, so‘fiy, tasavvuf, taqvo, komillik, ma‘rifat, ishq, nafs, sabr-toqat.

Annotation. This article examines the way of life and charitable deeds of Sufi women. It discusses how the descriptions of enlightened, patient, steadfast, and strong-willed ‘arifa women—firm in worship and piety—are presented in the Qur‘an and in the histories of the Prophets. The qualities of Sufi women are also reflected in rare masterpieces of classical literature. In particular, through works such as Fariduddin Attar’s *Tazkirat al-Awliya*, Abdurahman Jami’s *Nafahat al-Uns*, Alisher Navoi’s *Nasayim al-Muhabbat*, and Sufi Olloyar’s *Sabot al-Ojizin*, the article analyzes references to ‘arifa women who attained the spiritual rank of Sufism.

Key words: Orifa, Sufi, Sufism, piety, perfection, enlightenment, divine love, ego, patience.

Mumtoz adabiyotimizning durdona asarlarida yoritilgan mavzular ko‘lami keng va takrorlanmas. Ularda Parvardigor madhi, payg‘ambarlar tarixi, avliyo va sahobalarning go‘zal fazilatlarini, alohida sifatlarini bilan nom qozongan valiyalar ta‘rifi ijodkorning mahorati va so‘z sehri orqali o‘z ifodasini topgan. Haq ishqida yongan va bu yo‘lda toat-ibodat, taqvo bo‘lgan, alaloqibat so‘fiylik darajasiga yetolgan erlar ta‘rifi ko‘plab ijodkorlarning qarashlarida aks etgan. Shu bilan birga kuchli iymon, din va dunyoviy bilimlari, aql-farosat va nozik tabiati, pok qalb sohibalari – “Orifa ayollar” zikri ham o‘tmish adabiyotining



uzviy bo‘lagi hisoblanadi. Turli davr ijodkorlarining ta‘rif-u tasnifi har qaysi jamiyatda ilm-ma‘rifatli, oqila va zukko ayollar kam emasligidan, bu esa barcha sohalarda xotin-qizlarimizning o‘z o‘rni, o‘z so‘ziga egaligi, hurmat va e‘tiborda ekanligidan dalolatdir. Kelajagimiz asoschilari – farzandlarimiz tarbiyasi musulima ayollar zimmasida. Zero, buyuk insonlar, daholar ortida ularni yetishtirgan zukko, aqlli ayollar, onalar turadi.

Tasavvuf ilmida so‘fiy deyilganda, ko‘pincha, erlar tushuniladi, ammo ayollarning go‘zal fazilatlarini sanab o‘tilarkan, ilm va taqvoli, farzand kamoli yo‘lida fidoyilik, yetuklik darajasiga yeta olgan orifa ayollarimiz talqini muqaddas kitoblarimiz va mumtoz asarlarimizda takrorlanmas ta‘riflar bilan keltirilgan. Qur‘oni Karimdagi ayollarning aksariyati payg‘ambarlarning onalari yoki xotinlari sifatida tasvirlangan. Jumladan, Maryam Bintu Imron – Iso Masihning onasi eng soliha va eng hurmatli ayollardan biri hisoblanadi. “Maryam” surasining o‘n oltinchi oyatida mana bunday inoyat qilingan: “(Ey Muhammad!) Ushbu kitobda (Qur‘onda) Maryamni yod eting! U o‘z oilasidan chetga – sharq tomonga ketdi (16-oyat)”.

Payg‘ambarlar tarixi kitobida ham Hadicha onamizning kuchli iymoni, vafodorligi, Alloh va Rasulini rozi qiladigan ishlarga tashnaligi sababli Rasululloh (s.a.v.)ga nihoyatda sevimli bo‘lganliklari keltiriladi. Unda “Payg‘ambarlar mo‘minlarga o‘zlaridan ham yaqinroq – haqliroqdir, uning ayollari esa ularning onalaridir”... deyiladi [Tantoviy, 2023: 608].

Orifa ayollar zikri keltirilgan asarlar tahliliga o‘tar ekanmiz, Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarida so‘fiy ayollar, jumladan, Robiya Adaviya haqida dastlabki ma‘lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. Asarda Robiya Adaviyaning ta‘rifi shunday: “U xoslar guruhidan bo‘lgan ixlos masturasi, ishq va ishtiyoqda kuygan, yaqinlik va ehtirosga oshufta edi” [Farididdin Attor, 2023: 528]. Bu asarda “Robiya” hamda “Hasan Basriy va Robiya” hikoyatidan olingan quyidagi parchadan ham Robiya Adaviya ilm va fazlda, sabr va taqvoda tengsiz ayol bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz:

*Edi chun Robiya sohibmaqom ul,
Necha kun totmadi tuz-u taom ul.
Ishi toat ibodat bo‘ldi yakkash,
Duo bo‘ldi, ibodat bo‘ldi yakkash.*

So‘fiy ayollar tasvirini o‘ziga xos sifatlari bilan yoritib bera olgan buyuk ijodkor – Alisher Navoiyning “Nasoyim ul muhabbat” tazkisasi so‘fiy ayollar zikr etilgan muhim asar sanalib, unda ilm-u hikmatda yuksak ayollar haqidagi bo‘limida “Erlar martabasiga yetgan orifa ayollar zikri” keltirilgan. Ta‘riflarning boshlanishida Alisher Navoiy shunday keltiradi: “Agar ayollar biz aytgandek bo‘lsalar, erkaklardan afzaldurlar. Quyoshning muannas ism ekanligi unga ayb emas, oying muzakkar ism ekanligi unga faxr emas” [Alisher Navoiy, 2013: 489]. Ya‘ni, “Quyosh” (ash-Shams) so‘zi grammatik jihatdan muannas (ayol)jinsiga mansub bo‘lsa ham uning qudratiga va olamshumul ahamiyatiga



zarracha soya solmaydi. “Oy” (al-Qamar) so‘zi esa arab tilida muzakkar (erkak) jinsida ishlatiladi. Oy o‘zidan nur chiqarmaydi, u quyosh nurini aks ettiradi, xolos. Oy nomining “Erkak” jinsida bo‘lishi unga quyoshdan ustunlik bermaydi va shunchaki “Erkak” bo‘lib tug‘ilishning o‘zi faxrlanish uchun yetarli emas, haqiqiy qadr-qimmat amal va mohiyat bilan o‘lchanadi.

Ayollar madhi Robiya Adaviyadan boshlanarkan, uning ilohiy ma‘rifat sohibasi ekanligi hayotiy voqealar asosida yoritiladi. Hikoyatda Robiya Adaviya (r.a) va Sufyon Savriy (r.a) suhbatini ta‘sirli yoritiladi.

Sufyon Savriy:

– Ey Robiya, Allohdan qo‘rq, taqvoni ziyoda qil!

Sufyon Savriyning so‘ziga javoban Robiya Adaviya shunday deydi:

– Ey Sufyon, men Allohdan qo‘rqaman, ammo sendan hayronman. Sen Allohni tanigan holda ham unga bo‘lgan muhabbatdan ko‘ra qo‘rquvingni ustun qo‘yding. Men esa Allohni shunday sevamanki, muhabbat ichida qo‘rquvga joy qolmaydi.

Robiya Adaviya Allohni chin muhabbat bilan tanigan inson ibodatni qo‘rquv yoki mukofot umidida emas, balki Haqning o‘ziga bo‘lgan chinakam ishqida amalga oshirishi kerakligini ta‘kidlaydi. Sufyon Savriy bu so‘zlardan ta‘sir lanadi va Robiya Adaviyaning ma‘naviy darajasi naqadar yuksak ekanini tan oladi. Ulug‘ mutaffakkir bu hikoyatda Robiya Adaviyani haqiqiy ishq sohibi o‘laroq tasvirlab, uning ma‘naviy maqomini go‘zal tazrda ochib beradi.

Alisher Navoiy Robiya Adaviya tavsifidan keyin Lubobat ul-Muta‘abbida haqidagi, so‘ng Maryam Basriya hikoyatini keltiradi [Alisher Navoiy, 2013: 490]. So‘fiy ayol maqomiga erisholgan Maryam Basriyaning so‘zga e‘tiborli, kam, ammo mazmunli fikrlar sohibasi sifatida tasvirlaydi.

“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida Rayhonai Voliha, Mu‘ozai Adaviya, Ufayrai Obida, Sha‘vona, Kurdiya, Hafsa binti Shirin, Robiai Shomiya, Hakimai Dimishqiya, Ummi Hassan kabi o‘ttiz besh orifa ayollar hol va sifatleri yoritilgan. Alisher Navoiy tazkirada soliha ayollar fazilatlarini sodda, hayotiy ifoda etarkan, ma‘rifatli ayol talqini orqali tasavvufda ayollarning mavqeyi, ularga bo‘lgan munosabat haqida tasavvur uyg‘otadi.

Nafsi jilovlay olgan, ishq o‘tida kunduz yemakdan tiyilib, uyqu neligin bilmagan sabrli ayol deb Mu‘ozai Adaviya tasvirlangan bo‘lsa, Haq ishqida yig‘idan ko‘zlari ko‘r bo‘lib qolgan chinakam oshiq sifati Ufayrai Obida ta‘rifida keltirilgan [Alisher Navoiy, 2013: 491].

Tasavvuf allomalari ijodida so‘fiylik maqomiga erishgan erlar qatorida orifa ayollar zikri keltirilarkan, So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asaridagi Robiya hikoyati o‘zgacha talqinda ifodalanadi. Soffi Olloyor bu tarixdan shunday hikoya qiladi:

Eshitkil, Robi‘aning ashkin, ey shoh,

Birovning chodiriga tom di nogoh.

Dedi: “Yuv chodiringni, ey qarindosh,

Qizil qondur ko'zumdin sachrag'on yosh.

Uyatlig' osiyadin, ey guziyda,

Bo'libdur qona tabdil obi diyda". [So'fi Olloyor, 2021]

Ushbu satrlarda gunohlari uchun Robiya Adaviya tavba-tazarruda bo'lib, qon yig'lashi keltirilgan. So'fi Olloyor: "Sof siyrat, pokiza bir ayol shunchalar yig'lasa, bizlardek yuzi qoralarning ahvoliga voy!" – deydi. Yana Robiya haqida shunday sharh beradi: "Robiya zotan ayol bo'lsada, eranlar – tariqat ulug'lari unga "Tojur rijol", ya'ni "Er kishilar toji" degan nomni berdilar".

Xulosa qilib aytganda, "Tazkirat ul-avliyo", "Nafahot ul-uns", "Nasoyim ul-muhabbat", "Sabot ul-ujizin" da keltirilgan ma'rifatli ayollar ilm va ibodati, sabr-bardoshi, matonati bilan yuksak maqomlarga ko'tarilganlar. Bundan korinadiki, Allohga bo'lgan muhabbat hech qanday shartlar yoki manfaatlar evaziga emas balki haqiqiy, sof oshiqlikda ekan. Haqning nazari tushgan orifa xotin-qizlar tasavvufda ma'lum bosqichlarni erkaklar qatorida bosib o'tganligi hurmat bilan e'tirof etiladi. Mumtoz adabiyot namunalarida keltirilgan ayol siymolarini tadqiq etish jamiyatda xotin-qizlarimizning mavqeyini yana-da mustahkamlaydi, go'zal fazilatlarini yoritib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Qayta ishlangan 1-nashri – Toshkent: "Munir" nashriyoti, 2021. – 642b.
2. Muhammad Sayid Tantoviy/ tarjimon Ziyovuddin Rahim. Payg'ambarlar tarixi. – Toshkent: "Matbaachi", 2023-608 b.
3. Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo/ Abdumajid Madraimov. – Toshkent: "Factor press" nashriyoti, 2023 – 528 b.
4. Alisher Navoiy to'la asarlar j.10 684.b (489-b) – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2013.
5. So'fi Olloyor. "Sabot ul-ujizin" sharhi. Ravoyihur rayhon. – Toshkent: "Sharq", 2021. – 576 b.
6. G'ofurjonova Mohlaroy Nodirjon qizi. Yozma manbalarda so'fiy ayollar timsoli. International scientific journal. ISSN: 2181-3906. 2025
7. Iqbol O'razova. [“Suhayl va Guldursun” dostonida o'g'uz lahjasining qo'llanishi](#). UZBEKISTAN. P. 90
19. Shamsieva Manzura, Abdurashitov Naimjon. Bilingualism in psycholinguistic interpretation. Open Academia: Journal of Scholarly Research Volume 1, Issue 3, June, 2023 ISSN (E):2810-6377 Website: <https://academiaone.org/index.php/4>.
20. Umurzakova M.E. [Types of linguistic personality in the literary text \(on the example of Ulugbek hamdam's stories\)](#)
1. [Xakimova M. Synesthetic metaphor in uzbek language // Asian Journal of Multidimensional Research](#), January 2021. № 10(3). -P. 495-499.